

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Berilgan qaysi gapda nuqtalar o'rniga ko'makchi qo'yiladi?

- A) Bilasiz..., siz va biz bir ariqdan suv ichamiz.
- B) Shuni unutma..., tarbiyaning otasi - mehnat.
- C) Yig'ilgan xaloyiq suron ... yangi shahar tomon qo'zg'aldi.
- D) Gulnoz shundan keyin uch marta xat yozdi, ... javob kelmadi.

2. Qaysi gap faqat bir xil so'z turkumidan tashkil topgan?

- A) Yugurish – foydali sport turi.
- B) Olim, Sobir – sinfimizning bilimdonlari.
- C) Kumush qishning ziynati qordir.
- D) Muvaffaqiyat – harakat qilganlarniki.

3. *Teran tarixiy tomirlarga ega, ularga asoslanib yorqin kelajak sari intilib yashayotgan xalq, millatni o'z yo'lidan qaytarish mumkin emas.*

Ushbu gapda fe'lning vazifa shakllaridan qaysi biri mavjud emas?

- A) ravishdosh B) harakat nomi
- C) sifatdosh D) sof fe'l

4. Qaysi so'zlar juftligi tub va yasama so'zlarga misol bo'la oladi?

- A) tilim (qovunning bir qismi) – tilim (tana a'zosi)
- B) terma (xalq og'zaki ijodi janri) – terma (terib olingan degan ma'nodagi sifat)
- C) oqish (rang) – oqish (fe'lning harakat nomi shakli)
- D) oylab (ravish) – o'ylab (fe'l)

5. *Fahm, farosat, ...*

Ushbu sinonimik qatorni davom ettira oladigan so'zni aniqlang.

- A) tamiz B) bilim
- C) peshqadam D) qobiliyat

6. Bir umumiy ma'no ifodalay oladigan so'zlar juftligini belgilang.

- A) tanti-erka B) aziz-laziz
- C) anvoyi-turli D) yaroqli-qurolli

7. *Ona tilim, sen borsan, shaksiz,*

Bulbul kuyin she'rga solaman.

Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,

Men ham to'ti bo'lib qolaman.

Ushbu she'riy parchadagi egalarni aniqlang.

- A) ona tilim, sen, bulbul B) sen, men
- C) sen, sen, men D) ona tilim, sen, men




8. "Farhod va Shirin" dostonini muallif qanday nom bilan ta'riflaydi?
A) firoqnoma B) ishq dostoni
C) "Xusrav va Shirin" D) shavq dostoni
9. Xojaning "Maqsad ul-atvor" dostoni kimning qaysi asariga nazira shaklida yozilgan?
A) Navoiy "Hayrat ul-abror" B) Jomiy "Tuhfat ul-ahror"
C) Dehlaviy "Matla ul-anvor" D) Ganjaviy "Maxzan ul-asror"
10. Quyidagilardan qaysi biri xalq dostonlarining muhim belgisidir?
A) qahramonlarning favqulodda xususiyatga ega bo'lishi
B) she'r bilan nasrning aralash kelishi
C) yirik hajmda bo'lishi
D) qahramonlar boshidan o'tgan qaltis voqealarning tasvirlanishi

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Qaysi javobda ajratib ko'rsatilgan so'z uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan?
A) Shu payt davraga, dutor, rubob va tanbur ko'targan sozandalar kirib kelishdi.
B) Ming jafolardan, qirg'inlardan, talafotlardan omon chiqqan xalqim bor.
C) Teran fikrni ko'proq keksalarda ko'rishimiz mumkin.
D) Yomon yo'ldosh yov bo'lur, rovon yo'lda g'ov bo'lur.
12. Har ikkala qismida ham yasama so'z mavjud bo'lgan bog'langan qo'shma gap qaysi javobda berilgan?
A) Kitob bir bog', yozuvlar esa uning gullaridir.
B) Bizning shunday ulug' she'riyatimiz bor, boylikda beqiyos ona tilimiz bor.
C) Do'stlikdan o'tadigan hech narsa yo'q, shuning uchun do'st orttirish imkoniyatini sira qo'ldan boy berma.
D) To'satdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ertoyev paydo bo'ldi.
13. Qaysi gapda tirening qo'yilish sababi boshqalaridan farq qiladi?
A) Bu – siz uchun katta sinov.
B) Yaxshi o'g'il – el obro'si, yaxshi qiz – uy obro'si.
C) Maqsadimiz – tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritish.
D) Qor yog'di – don yog'di
14. Qaysi gapda imloviy xato yozilgan so'z mavjud?
A) U kelinning og'zidan gapini uzib olganday tez-tez gapirarmish.
B) Sen ko'rmayapsan, oshna, oy botib, yulduzlar birin-ketin so'nib borayapti.
C) Agar u sal shaddod, sal sho'xroq, sal quvnoqroq bo'lsa, Haydar xursand bo'lar edi.
D) Ora-chora serkaning qo'ng'irog'i jiringlab qo'yar edi.



15.



Ushbu chizmaga mos keluvchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.

- A) Yovlar yakson bo'lsin deb, yigitlar jang boshladi.
- B) Shu topda hordiq chiqarishga fursat yo'q edi, shuning uchun tag'in jiddiy ishga kirishib ketdilar.
- C) Odobli odam tabibga o'xshaydi, chunki u bilan suhbatlashish ko'ngildagi g'amni quvadi.
- D) Biz musobaqada g'olib chiqdik va maktab direktori tomonidan maqtovga sazovor bo'ldik.

16. *Badbaxt ul kishidirki, anga so'z ta'sir qilmas.*

Ushbu gapdagi vergulning qo'yilish sababini izohlang.

- A) uyushiq bo'lak borligi uchun
- B) bog'lovchisiz qo'shma gapdagi sodda gaplarni ajratish uchun
- C) ergashgan qo'shma gap qismlarini ajratish uchun
- D) ajratilgan bo'lak borligi uchun

17. 1. *Bostirmada Ziyodaxon supra yozib, un elab o'tirar edi.*

2. *Bo'taboy oyog'i bilan yerga bir nima deb yozdi-yu, yana yo'lida davom etdi.*

3. *Qo'shiq aytib ko'nglimizni yozamiz.*

Ushbu gaplarda ishtirok etgan yo'zmoq so'ziga to'g'ri ta'rif bering.

- A) Birinchi va ikkinchi gapdagi yo'zmoq so'zi bir so'zning turli ma'nolari, uchinchi gapdagi yo'zmoq so'zi ularga nisbatan shakldosh hisoblanadi.
- B) Barchasi o'zaro shakldosh so'z hisoblanadi.
- C) Barchasi bir so'zning turli ma'nolari hisoblanadi.
- D) Birinchi va uchinchi gapdagi yo'zmoq so'zi bir so'zning turli ma'nolari, ikkinchi gapdagi yo'zmoq so'zi ularga nisbatan shakldosh hisoblanadi.

18. *Har kishining tavrigo'la loyiq kerak,*

Surati holigo'la muvofiq kerak.

Kimki ulug'roq anga xizmat kerak,

Ulki kichikroq, anga shafqat kerak.

Ushbu parcha "Xamsa"ning qaysi dostonidan olingan?

- A) "Hayrat ul-abror" B) "Farhod va Shirin"
- C) "Layli va Majnun" D) "Saddi Iskandariy"

19. Xojaning bir hikoyatiga ko'ra Iskandar va Doro o'rtasida nima sababdan jang chiqadi?

- A) Doro Iskandar talab qilgan yerni bermagani uchun
- B) Doro Iskandar aytgan yerni boshqarmagani uchun
- C) Doro Iskandarga xiroj to'lamagani uchun
- D) Doro Iskandarning lashkarboshisini o'ldirgani uchun



20. Mumtoz adabiyot qanday qismlardan iborat?

- A) aruz ilmi, qofiya ilmi, badiiyat ilmi
- B) g'azal ilmi, she'riy san'at ilmi, doston ilmi
- C) vazn ilmi, san'at ilmi, she'r ilmi
- D) she'r ilmi, g'azal ilmi, ruboiy ilmi

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Quyidagi parcha haqida to'g'ri hukmni aniqlang.

Istiqlol unut bo'lgan davlatchiligimizni tikladi, yo'q bo'lishga mahkum qilingan tilimizni, millatimizni asradi va aziz qildi. Endi uning biz yo'qotib ulgurgan boyligini tiklash, turli "izm" tamg'alarini qo'yib iste'moldan chiqarilgan so'zlarni o'rniga qaytarish, buning uchun mumtoz adabiyotimizni chuqur o'rganish hozirgi avlod zimmasidagi sharaflı burchdir. (Erkin Vohidov)

- A) fe'ning tuzilishiga ko'ra bir turi ishtirok etgan
- B) tub va yasama ravish ishtirok etgan
- C) barcha yasama sifatlar otdan yasalgan
- D) egalari va fe'l turkumidagi so'zlar bilan ifodalangan.

22. Milyon... o'zbek... umidlari jam

Milyon bu ovozlari – nomus ham ordir.

Chopdi... she'rlar...ni qo'ltiqlab men ham:

Ega... bor yurtning – ertasi bordir. (S. Sayyid)

Ushbu she'riy parchada nuqtalar o'rniga mos keluvchi qo'shimchalar haqidagi xato hukmni aniqlang.

- A) Ushbu she'riy parchada ismning munosabat shakli qo'shimchasi tushib qolishi kuzatiladi.
- B) Ushbu she'riy parchada fe'ning munosabat shakli qo'shimchasi tushib qolishi kuzatiladi.
- C) Ushbu she'riy parchada so'z yasovchi qo'shimchani tushib qolishi kuzatiladi.
- D) Ushbu she'riy parchada lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchani tushib qolishi kuzatiladi.

23. *Usmon Nosir nihoyatda ziyarak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlarini bilan ajralib turar edi.* Ushbu gap haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

- A) ushbu gapda murakkab ot-kesim uyushgan
- B) ushbu gapdagi kesimlarning barchasi yasama so'z bilan ifodalangan
- C) ushbu gapda qo'shma fe'l bilan ifodalangan kesim mavjud
- D) ushbu gap uyushiq kesimli sodda gap hisoblanadi

Quyida berilgan matn asosida uchta topshiriqni bajaring.

Suhbat qizigan sayin Odil Yoqubovning bahri-dili ochilib borardi. U yozuvchi mahorati, so'z sanati, o'zbek tilining ko'rkamligi, burroligi, pishiqligi va jozibadorligi, boy va ixchamligi; so'z ko'ngil maxzanining qulfi-kaliti ekani, inson tafakkuridagi eng yuksak, eng chuqur va eng otashin tuyg'ularning so'zda ochiq-oydin ifodalash fazilatlarini; so'zlarni turfa ranglarga bo'yab-bejamaslik, dabdabali, balandparvoz, chaynalgan, chuchuk, tushunish qiyin bo'lgan yaltiroq so'zlardan qochish; so'zni sevish, e'zozlash, hurmat qilish, avaylab-ehtiyotlab qo'llash; qalamkashning har kalomida haqiqat gullari barq urib yashnab turishi, hayot nafasi, yashash sururi ufurib turishi haqida maroq bilan so'zlardi. (A. Ko'chimov)



24. Ushbu matnda quyidagi xatoliklardan qaysi bir(lar)i mavjud?

- 1) imloviy xatolik;
- 2) ishoraviy xatolik (puntuatsion);
- 3) soʻz qoʻllash bilan bogʻliq uslubiy xatolik;
- 4) qoʻshimcha qoʻllash bilan bogʻliq uslubiy xatolik.

- A) 1, 2, 3, 4 B) faqat 1
C) 3, 4 D) 1, 4

25. Ushbu matnda ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning hech biriga tegishli boʻlmagan maʼnoni aniqlang.

- A) qiziqish, intilish B) shirin
C) soʻz, nutq D) boylik, xazina

26. Ushbu matnga xos boʻlmagan fikrni belgilang.

- A) Ijodkorlar nutqida haqiqat koʻrinib turishi kerak.
B) Yozuvchining mahorati chuchuk, yaltiroq soʻzlarni qoʻllay olishi bilan belgilanadi.
C) Qalamkashlar soʻzga nisbatan hurmatda boʻlib, asrab-avaylashi kerak.
D) Ijod va soʻz haqidagi suhbat Odil Yoqubovning koʻngliga xush yoqardi.

27. “Alpomish” dostoni haqidagi qaysi hukm notoʻgʻri.

- A) Alpomish keskir qilichlarni beliga boylab, Arpali koʻlidan otlana berdi,
B) Alpomish choʻponlarning qoʻshxonasida uxlab yotdi. Fayzi sahar vaqtiga yetdi. Sahar vaqti choʻponlarning qoʻshxonasida bir tush koʻrdi.
C) Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan oʻn toʻrt botmon birinjdand boʻlgan parli yoyi bor edi.
D) Kanizlar Alpomishni otning ustidan olib, gilamning ustiga solib, bardor-bardor qilib koʻtarib, baxmal uyga kirgizib ketdi.

28. *Gar oshiq esang, zeb-u takallufni unut,
Yaxshi-yu yamon ishda taxallufni unut,
Oʻtgan gar erur yamon, taassufni unut,
Kelgan gar erur yaxshi, tasarrufni unut.* (Navoiy)

Ushbu ruboiy haqidagi notoʻgʻri hukmni toping.

- A) ruboiy a-a-a-a shaklida qofiyalangan
B) ushbu ruboiy radifli ruboiy hisoblanadi
C) ruboiyda mutlaq qofiya ishtirok etgan
D) ruboiyda i harfi raviiy hisoblanadi

Furqat qalamiga mansub gʻazaldan olingan ushbu parchani oʻqing va quyidagi ikki topshiriqni bajaring.

*Bulbul oʻqigʻoch yigʻlab subhidam hazon faslin
Gʻuncha qon yutub, yuz chok etdi gul giribonlar.*

*Kechtilar vafo ahli qolmayin tutib savsan,
Kiydi koʻk qilib sunbul zulfini parishonlar.*

(Giribon – yoqa, savsan – gulsafsar).



29. Furqat qalamiga mansub ushbu parchadagi to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) Birinchi baytda bulbulning xazon fasliga ketishi gulni xafa qilgani haqida ma'lumot berilgan.
- B) Ikkinchi baytda vafo ahlining o'tib ketganligi sababli ko'k kiyish voqeasi aks ettirilgan
- C) Birinchi baytda bulbulning gul ishqida nola qilishi tasvirlangan
- D) Ikkinchi baytda vafo ahlini kutish uchun bezangan gullar tasvirlangan

30. Furqat qalamiga mansub ushbu parcha haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) Birinchi baytda husni ta'lil san'ati qo'llangan.
- B) Birinchi baytda tajnis san'atining go'zal namunasi uchraydi.
- C) Ikkinchi baytda talmeh san'ati qo'llangan.
- D) Ikkinchi baytda tazod san'atiga namuna uchraydi.

